



## “AVAZ O‘TAR” ROMANIDA TARIXIY VA BADIYY HAQIQAT

**Samandarova Nigora Erkinovna**  
mustaqil tadqiqotchi, Al Xorazmiy  
nomidagi Urganch davlat universiteti.  
**E-pochta:** s.nigora@bk.ru

**Abstrakt:** Ushbu maqolada yozuvchi S.Siyoyevning “Avaz O‘tar” romanida tarixiy haqiqatning badiiy ifodasi o‘rganilan. Unda asarning o‘ziga xos qirralari bilan bir qatorda adib badiiy-ruhiy tahlil va ijodiy fantaziya uyg‘unligini yetarlichcha ta’minlay olmaganiga ham e’tibor qaratilgan. Maqolada ilgari surilgan fikr-mulohazalar muxtasar holda umumlashtirilgan.

**Kalit so‘zlar:** tarixiy roman, tarixiy va badiiy haqiqat, mavzu, g‘oya, o‘ziga xoslik, xarakter, poetik mahorat.

Taniqli nosir Sa’dulla Siyoyev (1939-2021) XX asrning 1983-1986 yillari oralig‘ida ma’rifatparvar shoir Avaz O‘tar (1884-1919) hayoti va ijodi haqida “Avaz” nomli tarixiy biografik roman yozdi va bu asar 1987 yilda kitobxonlarga taqdim qilindi [6]. Oralan 32 yil o‘tgach, mustaqillik yillarida mazkur roman hech bir o‘zgarishsiz “Avaz O‘tar” [7] nomi bilan qayta nashr qilindi. Chamasi kitob qayta nashr qilingan paytda ancha keksayib qolgan 83 yoshli S.Siyoyev uni jiddiy qayta ishslashga o‘zida ma’naviy jasorat yoxud jismoniy kuch topa olmagan. Aks holda, tarixiy-biografik romanda tasvirlangan davr voqeliklari va tarixiy siymolar faoliyatiga doir sho‘rolar davridagi o‘z qarashlarini albatta yangilagan bo‘lardi.

Sa’dulla Siyoyevning «Avaz O‘tar» romanida XIX asr Xiva adabiy muhitni va bu adabiy muhitni shakllantirishda Muhammad Rahimxon II (Feruz)ning o‘rni, bu hududdan yetishib chiqqan yetuk shoirlar, Avaz O‘tar o‘g‘lining betakror va o‘ziga xos ijodi, fojiali taqdiri haqida fikr yuritilgan.

Roman kompozision tuzilishi jihatidan ham e’tiborga molikdir. Romandagi har bir voqeа bayoni, asar g‘oyaviy yo‘nalishiga mos holda sarlavha qo‘yilib, tartib bilan alohida bob shakliga keltirilgan. Asar so‘ngida bu boblar yaxlit kompozision butunlikni tashkil etgan. Romanda quyidagi muammolar qalamga olingan: a) Xiva xonligining ichki va tashqi siyosati; b) Xiva xonlari: Muhammad Rahimxon II va Isfandiyorxon hukmronlik yillaridagi ijtimoiy-siyosiy hayot; v) Xiva xonligida adabiy muhitning shakllanishi va taraqqiyoti; g) Avaz O‘tar hayoti, dunyoqarashi, ijtimoiy faoliyati, estetik ideali va ijodi; d) Islomxo‘ja pozisiyasining ijtimoiy-madaniy hayotni yaxshilanishiga ta’siri. ye) “usul jadid” maktablarining ochilishi va jamiyatdagi o‘rni va boshqalar.

Yozuvchi romanni yozish asnosida Avaz O‘tarning boy ijodiy merosiga, zamondoshlarining xotiralari va qaydlariga, turli arxiv hujjalariiga,



adabiyotshunoslarning shoir hayoti va ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma'rifiy faoliyatiga oid qimmatli tadqiqotlaridan olgan taassurot va tasavvurlariga asoslangan. Romanda Avaz shaxsiyati va ijtimoiy vaziyat tasviri o'zaro uyg'unlashib ketgan. Asar bosh g'oyasi shoir she'riyatining o'ziga xosligi bilan bog'liq masalalar ham roman davomida moslashtirilgan.

Asarning bosh g'oyasi Avaz O'tarning hayot yo'li, ichki dunyosi, xarakteri, ijodiyotini jamiyat hayoti bilan bog'liq ravishda yoritib berishdir. Adabiyotshunos Hotam Umurov ijodkor shaxsiyatining Sharqda nisbatan kam o'rganilgani haqida to'xtalarkan, kuyunchaklik bilan: "*Yozuvchi, ijodkor shaxsini o'rganish, tadqiq etish – bizning adabiyotshunosligimizda eng oqsoq sohalardan bira. Adabiyot darsliklaridagi mashhur adiblar hayoti talqinini bir eslab ko'ring. Garchi ularda yozuvchi hayot yo'li - biografiyasiga oid fakt-hodisalar ancha keng bayon etilsada, ular shaxsiyati xususida deyarli hech narsa aytilmaydi*" [8.80] deb yozadi. Binobarin, S.Siyoyev badiiy fantaziyasiga asosida bo'lsa-da, Avaz shaxsiyatining badiiy tadqiq etilishi jihatidan ham ushbu roman biz uchun muayyan qimmat kasb etadi. Yozuvchi sho'ro davri targ'iboti tv'sirida Avaz O'tarni isyonkor shoir va faol inson sifatida tasvirlashga intiladi. Asarda Avazning ijodiy muhitga kirib kelishi, hayotga, atrofdagi odamlarga munosabati bilan bog'liq tasvirlar o'quvchini shoir ichki olamiga olib kiradi.

Romanning ma'no-mundarija doirasi juda keng. Unda xilma-xil insoniy taqdirlar, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, ishqiy-maishiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida yurt taqdiri va millat kelajagi masalasi yetakchilik qiladi. Asarda Feruz, Otamurod qori (Kamoliy), Axmadjon (Tabibiy), Mutrib (Xonaxarobiy), Chokar, Roziy, Niyozmuhammad oxund, Masharip va Bobojon torro, O'tar bobo, Avaz, Muhammad Yusuf hoji (Zoriy) Ismoyil sozchi, Otajon bosma, Xudoybergan devon singari jamiyatda o'z nufuziga ega bo'lgan o'nlab tarixiy shaxslar obrazi tasvirlangan. Romanda Muhammad Rahimxon Feruz portreti siyrak, qo'ng'irga moyil soqol-murtli, sallasidagi yoqutrang jig'a porlab turgan, sokin qo'yko'z deya tasvirlanadi. Ammo adib uning "bir qo'lida qalam, bir qo'lida qadah tutgan"iga urg'u beradi. Demak, xon obrazini bir tomondan ijodkor, ikkinchi jihatdan maishatga berilgan shaxs sifatida, tarixiy haqiqatga zid tarzda badiiy idrok etadi. Vaholanki, Muhammad Rahimxon soniy XIX asr oxiri va XX asr boshlari Xorazm ijtimoiy-siyosiy, adabiy-madaniy hayoti taraqqiyotida o'chmas iz qoldirgan siymlardan biri, adabiy muhitning tashkilotchisi va rahnamosi edi. Ogahiyning "Shohidi iqbol", Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy", Laffasiyning "Tazkirai shuaro", Xodimning "Xorazm shoir va



navozandalari” singari tarixiy asarlari, tazkiralardagi iliq fikrlar bunga to‘la guvohlik beradi [9. 16]. Darhaqiqat, Feruzzonga zamondosh bo‘lgan Ogahiy, Bayoni, Laffasiy, Komil, Mirzo, Xodim, Kamyob, Tabibiy, Mutrib, Faqiriy, Chokar singari o‘nlab iste’dodlar bitgan turli janrlarga mansub asarlar bag‘rida ham bu buyuk inson qiyofasining u yoki bu jihatlari aks etgan. Feruzning go‘zal g‘azallari, nozik va o‘ynoqi muxammaslarida lirik qahramon kechinmalarigina emas, balki olijanob inson sifatidagi o‘z his-tuyg‘ulari, ma’naviy-ruhiy qiyofasi ham aks etgan. Ammo, sho‘ro davri adabiy siyosati uchun uning xon ekanining o‘ziyoq qora bo‘yoqlarda tasvirlash uchun yetarli dalil bo‘la olardi. S.Siyoyev ongostida syenzura bilan bog‘liq anashu andisha yetakchilik qiladi.

Roman Avazning xon saroyini tark etishi tafsilotlari bilan boshlanib, 1916 yil voqealari bilan tugaydi. Muallif Avazning isyonkorligi o‘sib borishini ijtimoiy hayot voqealari, aniqrog‘i rus sosial-demokratlarining ta’siri bilan bog‘lashga intiladi. S.Siyoyev romanda o‘z g‘oyalarini qahramonlar siymosiga singdirishda xarakterlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan unumli foydalangan. Jumladan, Avaz O‘tar xarakteridagi bir so‘zlilik, qat’iyatlilik, cho‘rtkesarlik xislatlari o‘sha davr siyosiy vaziyatining assoslari, ishonarli tasvirlanishida muhim rol o‘ynagan. Saroydagi Sharif Tarro kaltaklanib, vafot etgach, Avaz xarakterining o‘sha qirralari bo‘y ko‘rsata boshlaydi. Bu fojiadan qalbi larzaga kelgan Avaz saroyni tark etadi. “Bugun u saroydan mutlaqo bosh olib ketdi. Endi unga xonning zar popukli dasturxoni ham, islomiy naqshli sakkiz gazlik baland qopqasi ham yopiq. Bu qopqani Avaz o‘zi yopdi. Qaytib kirmaydigan bo‘lib. Mahkam yopdi” [7. 9].

Romanda Feruz saroyi “shohona tilla qafas” - deb talqin qilingan. Saroy shoirlari ijodida Feruzga xushomad, uning sha’nini ulug‘lash, g‘azallariga naziralar bog‘lash xayru-ehson ilinjida bitilgan ash’orlar ham mavjudligini inkor etib bo‘lmaydi. Shunga qaramasdan saroy adabiy muhiti she’riyatni nozik fahmlovchi Feruz atrofida jipslashgan o‘nlab iste’dodlarga ilhom manbai bo‘lgan. Saroydagi ilmu-adab, ilmu hikmat xususidagi suhabatlar, qizg‘in munozara – bahslar, she’rxonlik mushoiralari ko‘pgina amiru amaldorlar qo‘liga qalam tutqazgan, ular ma’naviy-ruhiy olamni boyitishga xizmat qilgan.

S.Siyoyev Feruz portretini shunday chizadi. “Avaz Muhammad Rahimxonning siyrak qo‘ng‘irga moyil soqol murti, sallasidagi yoqutrang jig‘asi, sokin ko‘zlarga dadil boqib g‘azal o‘qishga tushdi”. Muallif Avaz va Feruz munosabatlarini ikki ijodkor shaxsning oddiy muloqotidan, inson va uning erki darajasiga ko‘tarishga intiladi. Avazdagagi isyonkorlik - tirikchilik g‘am tashvishlaridan bir pog‘ona ko‘tarilish ya’ni “g‘aribona ozodlik”ni qo‘msash hosilasi tarzida bir muncha jonli



chiziladi. Avazni erkin ijodkor inson sifatida tasvirlashga qattiq mahliyo bo‘lgan muallif Feruzning ham mustaqil shaxs ekanligiga yetarlicha e’tibor bermaydi [3. 46].

Inson shaxs darajasiga ko‘tarilar ekan, tarix harakatiga muayyan ta’sir o‘tkazadi. Muhammad Rahimxoni soniy o‘z davrining farzandi – xukumdori, binobarin, e’tirof etilgan yirik shaxs bo‘lgan. Uning fitratida barcha zamonlar uchun andoza bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lmagani holda, o‘sha davrga xos bo‘lgan inkor etiluvchi hususiyatlar bo‘lishi tabiiy holdir. Barcha hukmdorlar singari Muhammad Rahimxon II ham o‘z hukumdarligini tutib turish uchun katta imtiyozlarga ega bo‘lgan xokimyatdan foydalanishi, xonlik sarhadlarini himoya etishi, lozim bo‘lsa hatto, kengaytirishi, isyonkorlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lishi, shubhasizdir. Bular uning o‘z hayoti davomida, amalga oshirgan ezgu ishlarga aslo soya tashlamaydi. Aksincha, tarixda ziddiyatli, murakkab taqdirlar bisyorligiga kishini ishontiradi.

Feruz o‘z hayoti davomida qilib ulgurgan haqu nohaq ishlarini tarozidan o‘tkazdi va o‘zidan so‘ng mamlakatning taqdiri xususida uzoq qayg‘uradi. Gunoh ishlari uchun Parvardigor oldida tavba qilib, bir paytlar valiahd deb e’lon qilgan to‘rtinchi o‘g‘li Isfandiyorni taxtdan mahrum etish haqida maxfiy farmon beradi. Ahli ulamo va ahli umaro mashvarati qay bir o‘g‘lining taxt vorisligiga loyiqligini hal qilsin,- degan qarorga keladi.

S.Siyoyev hayoliy fantaziyasida tug‘ilgan bu fikr tarix haqiqatiga unchalik mos kelmasa -da, Isfandiyorning noma’qbul ishlaridan shoir va ota sifatida Feruzaning ko‘ngli o‘ksiganligi, ko‘proq Islomho‘ja boshliq ahli umaroning fatvosi Isfandiyorning tarix sahnasiga kelishiga sabab bo‘lganligi mantiqan to‘g‘ridir. Asarda Feruz vafotining Avaz singari “shakkok” shoirni ham larzaga colganligi ruhiy-psixologik jihatdan ishonarli chizilgan.

Ko‘rinadiki, o‘zbek nasrida Feruzning shoh va shoir sifatidagi ruhiy-psixologik olami hali ochib berilmadi. Ba’zan bu sohada qalam tebratgan ijodkorning san’atkorlik mahorati yetishmasa, ba’zida esa falsafiy tahlil metodining tor qoliplari bu ishga mone’lik qilgan.

Romandagi Avazga yaqin va e’tiborga molik qahramonlardan biri bu XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitida faoliyat ko‘rsatgan sermahsul ijod sohibi Ahmadjon Tabibiydir. U past bo‘yli, ochiq chehra, shirinso‘z, nozik tabiatli kishi bo‘lgan. Shaxmat bilan tanburni g‘oyat xush ko‘rgan. Saroyda she’riyat, ilm-ma’rifat ahli o‘rtasida katta hurmatga ega bo‘lgani sababli xon e’tiborini qozondi, tabib sifatida kishilar dardiga shifo izladi.



Bobojon Tarroh Tabibiy haqida to‘xtalib shunday yozadi: “*Ahmadjon Tabibiy insonni javhari edi. Tuzilishi o‘rta bo‘yli, qorafarang, chechaktobli odam edi. Lokin so‘z bobida inson o‘rtasida kimni xushfe'l deb ta’rif etsangiz, shundan ham ziyoda edi*” [2. 146]. Tabibiy juda ko‘p ilm ahliga g‘amxo‘rlik qilganidek Avazga ham axloq, ilm va she’riyat bobida ustozlik qilgan. Shuning uchun shoir turli davrlarda yozilgan she’rlarida Tabibiyni o‘ziga ustoz bilib zo‘r hurmat bilan tilga oladi.

*Ne g‘am emdi, Avaz, nazm ilmida bo‘lsang Tabibiydek,*

*Ki derlar, ko‘rgan el nazmingni ustodingga sallommo [1]..*

Avaz O‘tarning saroyga kelishida, xon saroyida mashhur bo‘lishida Tabibiyning hissasi juda katta. “*Tabibiy yosh Avazdagi iqtidorni darhol payqadi. Uning she’rlaridagi fasoxat, topqirlik, o‘zga nazmgo ‘ylarda ko‘rinmaydigan ichki bir ruhiy qudrat bu yigitning quvvai hofizasi dongdor shoirni maftun etdi*” [7.10]

Tabibiy Avazdagi yuksak iste’dodni g‘oyatda qadrlagan. Uning juda ko‘p qiyin vaziyatlardan chiqishiga yordam bergan, o‘z yaqindek suyar, g‘oyat muhabbatli edi. Romanda ular o‘rtasidagi samimiy munosabatning ayrim qirralariga e’tibor berilgan.

Xiva xonligi haqida shunday bir asarning bo‘lishi faqat tarixiy va ma’rifiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda Muhammad Rahimxon Feruz va Isfandiyorxon, bosh vazir Islomxo‘ja yuritgan siyosatlar imkon qadar badiiy dalillangan.

Bizga ma’lumki, Xiva jadidchiligi Buxoro va Turkiston jadidlaridan farkli o‘larok, bu yerda matbuot, gazetachilik ko‘zga tashlanmaydi. Bu harakat katnashchilari, “Yosh xivaliklar” partiyasi raxbarlari va a’zolarining ko‘plab «Xotiralar» kitoblari bizgacha saklanib kolgan [10. 162]. Ushbu manbalarning kiyosiy taxlili asosida Xiva jadidchiligining shakllanish sharoiti va o‘ziga xos xususiyati hakida muayyan xulosalarni chikarish mumkin.

- XIX asrda yashab, ijod qilgan shoir, tarixchi, tarjimonlarning asarlaridagi g‘oyalar va tashqi savdo-madaniy alokalar ilg‘or fikrli, taraqqiyot tarafдорлари bo‘lgan kishilar guruhi – ma’rifaggparvarlarning shakllanishiga turtki bo‘lgan;
- Chor Rossiyasi bosqini sabab Xiva xonligiga kirib kelgan kapitalistik ishlab chikarish bilan bog‘lik yangiliklar, ma’rifiy va inqilobi g‘oyalar, shuningdek, Muhammad Rahimxon II (Feruz) ning yangiliklarga moyilligi, ma’rifat va maorifga homiyligi Xivadagi jadidchilik harakatiga asos bo‘lgan;
- davlat amaldorlari: kozikalon Salimoxunning xayrixoxdigi, Komil Xorazmiy mirzaboshining amaliy harakaglari, bosh vazir Islomxo‘ja amalga oshirgan



islahotlar Xiva xonligidagi jadidchilik harakatining o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatadi.

- Turkiston va Buxorodagi kabi xonlik hududida jadidchilik g‘oyalarining yoyilishida turli sabablar bilan bu yerga kelgan tatar ziyolilari tashvikot va targ‘ibotining ham kattta ta’siri bo‘lgan. Xorazm jadidchiligining o‘ziga xos tomonlaridan biri shuki, ularda matbuot va gazetachilik keng yo‘lga ko‘yilmagan va bu goyalarni keng xalk ommasi orasida targib kilish imkonи bo‘lmagan. Asosan yukori va o‘rta tabaka vakillari orasida mazkur xarakat ksngroq yoyilgan;

Jadidchilik harakatining ilk maqsadi yangi tipdagи maktablarni ochish, yosh avlodni savodli qilish bo‘lgan. Islomxo‘ja Xivada ilk yangi usul maktabining ana shu jarayonda bu savodli avlod uchun yangi fikr, yangi g‘oyalarni eltuvchi xabarlar, maqolalar, she’rlar, ocherklar va hikoyalar zarurligini sezdilar. Davrning teran, ta’sirli va hajviy voqealar, kuchli sharhlarga to‘la ozodlik va erkinlikka yo‘g‘rilgan asarlarida sho‘ro hukumati va uning aholi ustidan qilgan zo‘ravonliklari xolis ko‘rsatildi. Afsuski, S.Siyoyev ularni romanga to‘la jalb qila olmagan.

Ko‘rinadiki, S.Siyoyev roman voqeligi tasvirida ayrim o‘rnarda hayotiy mantiqdan chekingan. Natijada, asardagi ba’zi xarakterlar noxolis badiiy talqin qilingan.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Avaz Saylanma. – T.: Adabiyot va san’at, 1984.
2. Bobojon Tarroh. Xorazm shoir va navozandalari. – T., 2011.
3. Yoqubov I. Badiiy adabiyotda Feruz timsoli // Feruz shoh va shoir. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Urganch, 1994.
4. Karimov N. XX asr mening taqdirimda // Jahon adabiyoti. – T.: 2001, №2.
5. Normatov U.Umidbaxsh tamoyillar. – T.: Ma’naviyat, 2000.
6. Siyoyev S. Avaz. Roman. – T.: Yosh gvardiya, 1987.
7. Siyoyev S. Avaz O‘tar. Roman. – T.: Navro‘z, 2019.
8. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. T.: “O‘zbekiston”, 2001,
9. Sharipov.J. Saylanma. Uch jiddlik. J.1. – T.: Adabiyot va san’at, 1981
10. Yusupov P.H. Yosh xnvalnklar tarixn Urganch Xorazm, 2000.
11. **Islamjon Yakubov, Tozagul Matyokubova.** **Laboratory works of Gafur Gulam: poetic image and imagery** // Journal of critical reviews. ISSN- 2394-5125 vol 7, issue 17, 2020
12. Matyakubova T.R. Poetic character and its specific features // Theoretical & Applied Science. – Marseille, 2015. pp. 40-43
13. Yakubov Islamjan. Transformation of aesthetic views and modern uzbek novel. [Theoretical & Applied Science](#). 2017. - № 12. P 120-125.



- 14.Yakubov, I. Artistic interpretation of the drama of moral and spiritual problems in the tragedy “Romeo and Juliet”. ISJ Theoretical & Applied Science. . 2023. 02 (118), 517-520
- 15.Matyokubova, T. Poetic imagery of nature // Theoretical & Applied Science, 2023. 02 (118), 521-524

